

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**KILICHEV FARXOD DAVLATYAROVICH**

**YOSHLARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA  
MATEMATIK TAFAKKURNING O'RNI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

<https://buxdu.uz>

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Kilichev Farxod Davlatyarovich**

Yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda  
matematik tafakkurning o‘rni.....3

**Киличев Фарход Давлатярович**

Роль математического мышления в формировании  
научного мировоззрения у молодежи.....23

**Kilichev Farkhod Davlatyarovich**

The role of mathematical thinking in the formation  
of a scientific worldview in young people.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**KILICHEV FARXOD DAVLATYAROVICH**

**YOSHLARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA  
MATEMATIK TAFAKKURNING O‘RNI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fal1157 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**

**Xajiyeva Maksuda Sultanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarova Nigora Olimovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Dehqonov Behzod Baxtiyorovich**  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "25" aprel soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (637 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "12" aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil "12" aprel dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Muzaffarov F.D.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli jamiyat barpo etish, insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish hamda globallashtirish darajasiga tenglashishda ilmiy tafakkur asos vazifasini o'tamoqda. Matematik tafakkur va ilmiy dunyoqarashning mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligini ta'minlashdagi dolzarb ahamiyati raqamli iqtisodiyot mezonlarini o'lchash, samaradorlik darajasi, uning konseptual asoslarini belgilash, huquqiy-siyosiy muammolarni hal etishda namoyon bo'lmoqda. Shu sababli matematik tafakkurning ilmiy-metodologik, etimologik, aksiologik xususiyatlarini hamda muammolarni aniq va samarali hal etishdagi, inson aqlining "bilish" qobiliyatini rivojlantirishdagi ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarda yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, tanqidiy va konstruktiv fikrlashni shakllantirish muammolari, ijtimoiy murakkab obyektlar va voqealarni matematik modellashtirishga, raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish muammolarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Yoshlar matematik tafakkurini rivojlantirish zamonaviy ilm-fanning yangi tendensiyasiga aylanayotgani ushbu sohadagi institutsional tizim faoliyatini takomillashtirishni, iqtidorli yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish, amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularning ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlashni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan matematik tafakkurning evristik, empirik xususiyatlarini, yoshlarda abstraktlashtirish va matematik modellashtirish ko'nikmalarini, mantiqiy fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini samarali amalga oshirish, raqamli industriyani jadal rivojlantirish, yoshlarning ilmiy dunyoqarashini, ilm-fanga, ilmiy innovatsion izlanishlarga qiziqishini yuksaltirishga oid islohotlar jadallik bilan amalga oshirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining maqsadiga aylangan. Bizga ma'lumki, yoshlar yangilikka o'ch ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Shu jihatdan ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: "Binobarin, biz taraqqiy etayotgan dunyo bilan hamqadam yashashni istasak, ta'lim-tarbiya, ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar sohasini rivojlantirishni hayot-mamot masalasi deb bilishimiz shart. Aks holda, ko'p narsalarni boy berishimiz tayin. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti u yerdagi ilmiy tafakkur darajasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Zero, innovatsiyalar, yangi g'oyalar va ijodiy yondashuvlarga tayangan "bilimlar iqtisodiyoti" – eng barqaror va samarali iqtisodiyotdir"<sup>1</sup>. Bu esa matematik tafakkurning yoshlar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirish, ijtimoiy boshqaruv va iqtisodiyot sohalarini raqamlashtirishdagi ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: "O'zbekiston", 2024. - Б.85-86

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yilning 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 30-avgustdagi PQ-4433-son “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, matematik tafakkurni, chuqur bilim va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishning ayrim muammolarini xorijiy davlatlarda B.L.Vulfson, K.E.Oliver, F.Altbax, M.Krossli, M.Esshteyn, M.Brey, J.Piaje, A.Maslou, A.Adler, J.Alden, M.Donald, S.Biju, E.Torndayk, B.A.Bandura, D.B.Xolms, G.Spenser, V.Frankl, K.Mangeym, G.Markuze, M.Mid, Teyer de Sharden, J.Derrida kabi olimlar o‘rganishgan<sup>2</sup>. Mazkur tadqiqotlarda yoshlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, bilim olishi va kasb-hunar orttirish motivlari ijtimoiy o‘zgarishlarga munosabatlari kabi muammolar tahlil qilingan.

---

<sup>2</sup> Руткевич М. Н. Социология образования и молодёжи. Избранное. — Москва: Гардарики, 2002; Чупров В.И. Социология молодёжи. Учебник. — Москва: ИНФРА М., 2016; Ильинский И.М. Молодёжь и молодёжная политика. Философия. История. Теория. — Москва: Голос, 2001; Ювенология и ювенальная политика в XXI веке. Опыт междисциплинарного комплексного исследования, — СПб: Знание, 2004; Джуринский А. Теория и методология истории педагогики и сравнительной педагогики. Актуальные проблемы. — Москва: Прометей. 2020; Джуринский А. Поликультурное воспитание в России и за рубежом. Сравнительный анализ. — Москва: Литрес, 2006; Бодрийяр Ж. Общество потребления. — Москва: АСТ, 2020

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.N.Ikonnikova, I.Kon, P.Y.Grishin, V.Zuyev, M.N.Rutkevich, V.I.Chuprin, I.M.Ilinskiy, Z.A.Malkova, N.D.Nikandrov, T.F.Yarkina, M.A.Radionov, N.M.Voskresenskaya, M.A.Sokolova, R.Amretdinova, S.Abisheva, A.A.Kostkova, D.S.Brazevich, O.I.Bichkova, A.O.Grudzinskiy, B.G.Ananov, A.Allaxverdiyeva, V.J.Kelle, T.Romm, J.Zeynitdinova, O.A.Rtisheva, G.N.Gmizina, N.A.Vinokurova, A.N.Andreenkova kabi tadqiqotchilar muammoning ayrim ijtimoiy-falsafiy va pedagogik masalalarini tadqiq etishgan<sup>3</sup>.

O'zbekistonda muammoning ba'zi ijtimoiy-falsafiy va ilmiy jihatlarini E.Yusupov, S.Shermuhamedov, M.Xajiyeva, D.Norqulov, B.Aliyev, B.To'ychiyev, G.Navro'zova, K.Hoshimov, O.Musurmanova, M.Quronov, O.Jamoldinova, O.To'raqulov, Z.T.Raximov kabi olimlar tadqiq etishgan. N.Timurova, D.Raximova, Sh.To'rayev, Z.Bobomuradova, S.Rajabov, O.Naimov, U.Bo'tayev kabi tadqiqotchilar ham muammoga yechimlar topishga o'z hissasini qo'shishgan<sup>4</sup>.

Mavzuga oid ilmiy ishlar matematik tafakkurning ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rnini tadqiq etishda muhim rol o'ynadi, albatta. Biroq raqamli jamiyat sharoitida yoshlar tafakkurini rivojlantirish, muammolarga ilmiy yechim topish ko'nikmalarini mustahkamlash ijtimoiy jarayonlar va muammolarni bartaraf etishning falsafiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyati vujudga kelmoqda. Ushbu dissertatsiyada yoshlar ilmiy dunyoqarashining shakllanishida matematik tafakkurning ahamiyatini ochib berish va zamonaviy prinsiplar asosida tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti "Urganch davlat universitetini 2017-2030 yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan va Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yoshlar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda matematik tafakkurning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

---

<sup>3</sup> Иконникова С.Н. Молодежь и культура: социальный портрет. — СПб: Институт культуры, 1992; Кон И. Психология старшеклассников. — Москва: Просвещение, 1989; Молодежь и наука: проблемы и перспективы. Бишкек, БГУ, 1997; Молодежь и наука: реальность и будущее. Москва: Изд. НИЭУ, 2008; Аллахвердиев А. Динамика научных кадров в советской и российской науке. Сравнительно- историческое исследование. — Москва: Литрес, 2022; Келле В.Ж. Социальная динамика современной науки. — Москва: Наука. 1985; Ромм Т. История социальной педагогики. 2-е изд. Учебник. — Москва: Юрайт, 2018; Ртишева О.А., Гмизина Г.Н. Лобина Ю.А. Молодежь и наука. Т.1, 2.- Ульяновск: УлГПУ, 2011; Винокурова Н.А. Молодежь в науке // "Народонаселение", 2014, № 4. — С. 113-118; Н.А. Андреевкова. Современное поколение российских ученых: ценности, мотивации, стиль жизни — Москва: Центр прикладных исследований и программ, 2019.

<sup>4</sup> Qarant: Bobomuradov Э., Bobomuradova З. Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий психологияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2010; Найимов О. Илм-фан шунчаки ривожланмайди, у муаммога ечим топади // «Ўзбекистонда олий таълим», 2022, №4. — Б. 15-18; Жалолов М. Ўзбекистонда ахборот технологиялари таълими // "Ўзбекистонда олий таълим", 2022, №4. — Б. 26-31; Бўтаев У. Олий таълим муассасалари ва "учинчи сектор" ҳамкорлиги: муаммо ва ечимлар // "Ўзбекистонда олий таълим", 2022, №4. — Б. 45-54; Рахимов З.Т. Таълим жараёнида талабалар компетенциясини ривожлантиришнинг педагогик-психологик имкониятлари // "Таълим, фан ва инновация", 2018, №4. — Б. 36-41

### **Tadqiqotning vazifalari:**

matematik tafakkurning ilmiy talqinlari va ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uning falsafiy tafakkur bilan dialektik aloqadorligini tadqiq etish;

matematik tafakkurning sharqona genezisi va talqinlarini, regional xususiyatlarini ochib berish;

G'arb falsafasida matematik tafakkurning rivoji, metodlari va uning ilmiy dunyoqarash rivojidadagi o'rnini, matematik tafakkur muammolarining qo'yilishini qiyosiy tahlil etish;

zamonaviy matematik bilimlarning yoshlar ilmiy dunyoqarashiga ta'siri imkoniyatlarini aniqlash, ularni abstrakt fikrlash va matematik modellashtirish usullariga o'rgatish borasidagi xorijiy va milliy tajribalarni aniqlash;

Yangi O'zbekistonda ta'lim konsepsiyasi va uning yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish;

ta'lim tizimida yoshlarning ilmiy dunyoqarashi hamda matematik tafakkurini yuksaltirishdagi innovatsion izlanishlarni tahlil etish;

yoshlar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirish, ijtimoiy hayot sohalarini raqamlashtirish, komputerashtirish va algoritmlashtirishda matematik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy usullarini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni, ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, bilimlarini kengaytirish va ilmiy asosda qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish kabi jarayonlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** yoshlarda matematik tafakkurni rivojlantirish qonuniyatlari va fikrlash madaniyatini rivojlantirishda mantiqiy va analitik fikrlash qobiliyatini oshirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

falsafiy tafakkur va matematik fikrlash tarzining dialektik bog'liqligiga xos matematik qonuniyatlari va isbotlashning falsafiy konseptlarga tayanishi, muammoni hal etishda mantiqiy izchillik kabi ilmiy-metodologik, tushunchalar birligi va yagona tarixiy asoslar uyg'unligi kabi etimologik, fikrlash tarzi, yangicha qadriyatlar tizimi, analitik fikrlash va ijtimoiy rivojlanish kabi aksiologik hamda muammolarni ontologiyasini aniqlash, kreativ tafakkur va innovatsion salohiyatini shakllantirish kabi evristik xususiyatlari ochib berilgan;

Sharq falsafasida matematik tafakkur rivoji kosmologik, intuitivlik, simvolik va aksiomatik yondashuv asosida integrativ xususiyat kasb etganligi, G'arbda esa matematik bilimlar mantiqiy, analitik va eksperimental asoslarda shakllanganligi, analitik va empirik yondashuv texnologik va ilmiylik tamoyillarini rivojlantirganligi va ularning inson tafakkurining mukammallashuviga, zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida o'zaro boyituvchi ta'sirga egaligi aniqlashtirilgan;

matematik tafakkur sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va murakkab tizimlarni modellashtirish, abstrakt fikrlash qobiliyatini oshirish kabi omillar asosida yoshlar ilmiy dunyoqarashiga ta'siri etishi, kasbiy rivojlanishda STEM ta'limi ilmiy va texnik ko'nikmalarni integratsiyalashi va O'zbekiston iqtisodiyotida kon'yunkturaviy tebranishlarni tartibga solishdagi ahamiyati asoslab berilgan;

Yangi O'zbekistonda matematik tafakkur ijtimoiy boshqaruvda statistik tahlil, prognoz qilish tamoyillarini joriy etishi, raqamli ta'lim va sun'iy intellekt,

masofaviy ishlash modellari ijtimoiy-iqtisodiy sohalar samaradorligini oshirishi, resurslarni taqsimlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va optimallashtirishga xizmat qilishi isbotlangan hamda yoshlar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda savodxonlik, innovatsion fikrlash va yangi kashfiyotlarga zamin yaratish kabi ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

matematika gumanitar fan sifatida intellektual izlanishlar mahsuli, inson bilish faoliyatining ifodasi, gnoseologik masalalarning apriorligi, ayonligi, mantiqiyliqi, intuitivligining ratsional asoslari hamda matematik formallashtirish, analitik tahlil, tartib va me'yorga solish xususiyatlari aniqlashtirilgan;

yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ta'lim va tarbiya tizimi bilan uzviy ekanligi, aqlga ishonish va mantiqiy izchillik, ilmiy bilishda oilaviy qadriyatlar, etnomuhit yoki sotsial identifikatsiyalar ta'siri, e'tiqod, psixologik ustanovkalar, fikrlar, intellektual soflik kabi prinsiplarga bog'liq ekanligi asoslangan;

matematik tafakkurning mutlaq abstraksiyaga tayanish, mantiqiylik, qat'iylik, modellashtirish imkoniyatlari, raqamlashtirish, algoritmlash, ko'rgazmalilik va gumanitarizatsiyalashtirishga ehtiyojmandlik kabi jihatlari isbotlangan hamda yoshlar ilmiy dunyoqarashiga muammolarga ilmiy yechim izlashga o'rgatish, analitik fikrlashini rivojlantirish kabi ta'sirlari ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning matematik, ijtimoiy-falsafiy, ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, tahlil qilishda, ilmiy tafakkurni rivojlantirishning mantiqiy, tahliliy va tizimli asoslarini tadqiq etish, ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, ushbu jarayonning nazariy asoslarini kengaytirish va metodlarni ishlab chiqishda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning sabab-oqibatlarini ilmiy asosda ishlab chiqishga, ilmiy innovatsion faoliyatga tayyorlash, yangi ilmiy yondashuvlar va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish malakasini oshirish jarayonlarida metodologik asos sifatida hamda yoshlarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ilmiy qobiliyatni shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda matematik tafakkurning kasbiy faoliyatda va jamiyatdagi o'rnini belgilashda, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda real hayotdagi muammolarni tahlil qilish, yechimlar ishlab chiqish va samarali qarorlar qabul

qilishda, kasbiy rivojlanishda yangiliklarga ochiq bo'lish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini oshirishda, robototexnika, raqamlashtirish va algoritmlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda, murakkab jarayonlar va obyektlarni matematik modellashtirish tajribalarini oshirishga xizmat qilib, ijtimoiy dasturlarni tayyorlashda, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, hududlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishda, korxonalar va tashkilotlarda tashkil etiladigan ma'rifiy anjuman va konferensiyalarda, bu sohadagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish, chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, vazirliklar va idoralar, yoshlar bilan ishlash ittifoq va tashkilotlarining yoshlarni bilimli va faollik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirishda, shuningdek, "Falsafa" fanining mazmunini boyitishda, ilmiy loyihalar va amaliy ishlanmalar yaratishda, talabalar bilan uyushtiriladigan "Besh muhim tashabbus" tadbirlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yoshlar ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda matematik tafakkurning ahamiyatini aniqlash, uni rivojlantirish qonuniyatlarini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

falsafiy tafakkur va matematik fikrlash tarzining dialektik bog'liqligiga xos matematik qonuniyatlar va isbotlashning falsafiy konseptlarga tayanishi, muammoni hal etishda mantiqiy izchillik kabi ilmiy-metodologik, tushunchalar birligi va yagona tarixiy asoslar uyg'unligi kabi etimologik, fikrlash tarzi, yangicha qadriyatlar tizimi, analitik fikrlash va ijtimoiy rivojlanish kabi aksiologik hamda muammolarni ontologiyasini aniqlash, kreativ tafakkur va innovatsion salohiyatini shakllantirish kabi evristik xususiyatlariga doir nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi "Berdaq" jamoat fondida bajarilgan 72-14/19-raqam "Buyuk ajdodlarimizning merosi Vatanimiz taraqqiyotining poydevori" davlat granti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi "Berdaq" jamoat fondining 2024-yil 19-avgustdagi 7-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ma'ruzalar tayyorlashda, davlat grantlarini bajarishga oid rejalar ishlab chiqishda hamda yosh avlodning murakkab ijtimoiy jarayonlarni matematik modellashtirish orqali ijtimoiy-falsafiy xulosalarga kelish, ushbu xulosalarni ilmiy izlanishlar jarayonlariga tatbiq etishga xizmat qilgan.

Sharq falsafasida matematik tafakkur rivoji kosmologik, intuitivlik, simvolik va aksiomatik yondashuv asosida integrativ xususiyat kasb etganligi, G'arbda esa matematik bilimlar mantiqiy, analitik va eksperimental asoslarda shakllanganligi, analitik va empirik yondashuv texnologik va ilmiylik tamoyillarini rivojlantirganligi va ularning inson tafakkurining mukammallashuviga, zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida o'zaro boyituvchi ta'sirga egaligiga oid ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalardan "Yuksalish" umummilliy harakatining O'zbekistonda "Innovatsiyalar uchun hamkorlik" dastur loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan ("Yuksalish" umummilliy harakatining 2024-yil 11-iyuldagi 54-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarda matematik tafakkurning genezisi, shakllanish bosqichlari va evristik, empirik xususiyatlari ilmiy

izlanishlarga, avvalo, yoshlarning ilmiy dunyoqarashiga ta'sir etib ularda abstraktlashtirish va matematik modellashtirish ko'nikmalarini, mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun xizmat qilgan;

matematik tafakkur sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va murakkab tizimlarni modellashtirish, abstrakt fikrlash qobiliyatini oshirish kabi omillar asosida yoshlar ilmiy dunyoqarashiga ta'siri etishi, kasbiy rivojlanishda STEM ta'limi ilmiy va texnik ko'nikmalarni integratsiyalashi va O'zbekiston iqtisodiyotida kon'yunkturaviy tebranishlarni tartibga solishdagi ahamiyati bo'yicha xulosalar, taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VII yo'nalishida belgilangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, jumladan, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish" 33-bandi "Ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar uchun elektron "E-ta'lim" malaka oshirish platformasini yaratish", 43-bandi "Internetda milliylikni targ'ib etuvchi, mentalitetimiz, azaliy qadriyat va ezgu an'analarimizni saqlab qolish bo'yicha o'zaro muloqot maydoni uchun platforma va mobil ilovalar yaratish", 44-bandi "Ijtimoiy, tarbiyaviy muammolar aks etgan roliklar ishlash" bo'yicha ishlarini tashkil etish va amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy- ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 26-martdagi 118/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh targ'ibotchilar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqishga hamda raqamli va an'anaviy targ'ibot sohasidagi bilim va malakalarini oshirish o'quv kurslarini tashkil etishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda matematik tafakkur ijtimoiy boshqaruvda statistik tahlil, prognoz qilish tamoyillarini joriy etishi, raqamli ta'lim va sun'iy intellekt, masofaviy ishlash modellari ijtimoiy-iqtisodiy sohalar samaradorligini oshirishi, resurslarni taqsimlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va optimallashtirishga xizmat qilishi isbotlangan hamda yoshlar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda savodxonlik, innovatsion fikrlash va yangi kashfiyotlarga zamin yaratishiga oid nazariy umumlashmalar va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan 2023-2024 yillarda efirga uzatilgan "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar va biz" dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 25-oktabrdagi 04-36-1141-son ma'lumotnomasi). Natijada mamlakatimiz yoshlari dunyoqarashini shakllantirishga, ularda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni yuksaltirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining disseatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, olti paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Matematik tafakkur: genezisi, ilmiy talqinlari va ijtimoiy-falsafiy mohiyati”** deb nomlangan birinchi bobida falsafa va matematik tafakkur dialektik bog‘liqligining ilmiy-metodologik masalalari tahlil qilingan, matematik tafakkurning genezisi ochib berilgan. Matematik tafakkurning Sharqona genezisi algoritmi kashf etish, sonlar tasnifini yaratish, qo‘shish va ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish, sathni o‘lchash, miqdorni aniqlash, og‘irlik va harakatni, tezlikni kuzatish, me‘yorlash imkonini bergani asoslab berilgan.

Tadqiqotda bilish jarayoni matematika bilan bog‘liqlikiga e‘tibor qaratilgan. Mazkur jarayon bevosita yoki bilvosita matematik operatsiyalarni taqozo etadi. Shuning uchun faylasuflar matematikaning immanent xususiyatlarini anglashga, ochib berishga intiladilar. Matematikaning ushbu xususiyatlarini anglash esa uning borliq, bilish jarayoni, yon atrof, obyektlarning soni, yuzi, hajmi, sathi, makonda egallagan o‘rni, hatto harakatlarini o‘lchash bilan bog‘liqdir. Matematika narsalarning sathi, shakllari va sonli munosabatlarining ifodasi, sonlar haqidagi ta‘limot, o‘lchash va tartiblash haqidagi fan, intellektual faoliyatning alohida ko‘rinishi va shaxsni tarbiyalash ilmi, u hodisalar haqidagi fan, ya‘ni fenomenologiya kabi xususiyatlari orqali bilish predmetidir<sup>5</sup>.

M.M.Postnikov matematikaning vazifasini rang-barang sxemalarni, modellarni o‘rganish, u tabiiy fanlarga ham kirmaydi, gumanitar fanlarga ham, degan fikrni bildiradi. U modellar haqida gapirar ekan, uni matematikaning emas, balki falsafaning tadqiqot obyekti ekanligini ta‘kidlaydi. Bu taqdirda matematika ma‘lum bir sxemalar (sonlar ham sxemalardir)ni o‘rganadi degan fikr bilan chegaralanishga to‘g‘ri keladi<sup>6</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, matematika inson bilish faoliyatining ifodasi, shuning uchun u o‘zining gnoseologik savollariga, predmeti va masalalariga ega. Matematikaning gnoseologik masalalarini apriorligi, ayonligi, mantiqiyliqi, intuitivligi, empirikligi va amaliyligi bilan bog‘lab tadqiq etish maqsadga muvofiq. Chunki unda *birinchidan*, falsafiy muammo, mavzu birinchi o‘ringa qo‘yilgan. *Ikkinchidan*, matematikaning ichki xususiy belgilari va u tayanadigan umumiy

<sup>5</sup> Вечтомов.Е.М. Философия математики. Монография. - Киров: Изд. ООО “Радуга Пресс”, 2013. - С. 16

<sup>6</sup>Витгенштейн Л. Логико философский трактат. - Москва: АСТ. 2022. -С. 438.

abstraksiya falsafiy voqeliklar bilan yanada salmoqli, ahamiyatli va ilmiy bo‘ladi. *Uchinchidan*, falsafa va matematik tafakkurning bir-biriga dialektik bog‘liqligini kuzatish imkoni mavjud. Apriorlik inson bilimida ungacha mavjud bo‘lgan tasavvurni, tajribadan avvalgi voqelikni anglatadi.

Dissertatsiyada matematikada “butun sonlar arifmetikasi” degan tushuncha mavjudligi tahlil etilgan. Matematikadan uzoq bo‘lgan kishiga u mavhum yoki so‘z o‘yinlari bo‘lib ko‘rinadi. Biroq butun matematika tarixi ko‘rsatadiki, avvalida olimlar, tadqiqotchilar butun sonlarni anglash, ulardan foydalanish metodlarini yaratish ustida bosh qotirganlar<sup>7</sup>. Butun sonlar arifmetikasi matematik tafakkurning, matematika fanini anglashning, bilishning avvalidir. Qit‘amiz matematiklari, mutafakkirlari “butun sonlar bobida sanoqning oltmishli va o‘nli pozitsion sistemasi, butun sonlar va ular ustida amallar, ularning to‘g‘ri bajarilganligini tekshiruvchi vosita “Mezon” olish usuli sonlar ketma-ketligining yig‘indisini topish va og‘zaki topish usullarini bayon etadilar. Butun sonlar ustidagi amallar va ularni bajarishni ko‘rsatishdan avval arifmetika fani hamda son va uning mezoni haqida tushuncha beradilar. Ularning fikricha, arifmetika ma‘lum son vositasida noma‘lum sonni topish usuli haqidagi fandır, uning predmeti esa sondan iboratdir”<sup>8</sup>.

Ma‘lum sonlar vositasida noma‘lum sonni topish, falsafiy nuqtayi nazardan olganda, mavjud nazariy fikrdan hali ma‘lum bo‘lmagan, ammo topilishi mantiqan zarur, fikrni keltirib chiqarishdir. Bu mantiq faniga taalluqli, undagi xulosalar chiqarish, yangi bir aksiomatik g‘oyani ilgari surish an‘anasiga muvofiqdir. Ma‘lum son bilish jarayonini soddadan, ma‘lumdan boshlash, keyin murakkabga borish usulidir.

Madrasalarda matematik bilimlar Muhammad al-Xorazmiy, an-Nasaviy, Nasriddin Tusiy, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Kuboviy ko‘rsatmalariga muvofiq o‘rgatilgan. Masalan, bo‘lish ko‘paytirishga o‘xshaydi va bir vaqtning o‘zida unga teskaridir. Yoki bo‘lish amali bo‘linuvchini bo‘luvchi qadar kamaytirishdir. Bo‘luvchining har bir birligiga tegishli bo‘lak, bo‘linma deyiladi. Ajdodlarimiz bo‘lish amali boshqa amallarga nisbatan murakkabligini va bu amalni o‘zlashtirish uchun o‘tilgan amallarni yaxshi bilish zurligini uqtiradilar. Masalan, Nasriddin Tusiy bo‘lish amalining murakkabligini uch bosqichga ajratadi:

1. Bir xonali sonni bir xonali songa bo‘lish;
2. Ko‘p xonali sonni bir xonali songa bo‘lish;
3. Ko‘p xonali sonni ko‘p xonali songa bo‘lish<sup>9</sup>.

Dissertant fikricha, falsafa va matematik tafakkur o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lib, inson tafakkurining rivojlanishida va ilmiy bilish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ushbu bog‘liqlikning *ilmiy-metodologik asoslari* bilish jarayonining umumiyligida, dialektik tafakkurga tayanishida namoyon bo‘lsa, *etimologik asoslari* tushunchalarning birligi, tarixiy ildizlarning uyg‘unligida, *aksiologik asoslar* esa inson hayotidagi qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi o‘rni, bilim qadri, inson

<sup>7</sup>Qarang: Юшкевич А.П.история математики. В 3 х томах. –Москва: “Книга по требованию”, РАН, 1970; Просалов В. История математики. Часть 1. Москва: Изд. МЦИМО, 2018.

<sup>8</sup>Неъматова Ш. Математика фанини ўқитишнинг назарий масалалари ва методикаси. – Тошкент: ТАФАККУР, 2011. – Б. 112

<sup>9</sup>Неъматова Ш. Математика фанини ўқитишнинг назарий масалалари ва методикаси. –Тошкент: ТАФАККУР, 2011. – Б. 39

hayotining maqsad va mohiyatini anglashda koʻrinadi. *Evristik asoslar* muammoli vaziyatlarni aniqlash, yangi bilimlarni yaratish va kreativ tafakkurni shakllantirishida ifodalanadi.

Dissertant mulohazalariga koʻra, Sharq falsafasida matematik tafakkurning konseptual regional xususiyatlari tarixiy, madaniy, falsafiy va ilmiy anʼanalar asosida shakllanganligida boʻlib, intuitsiya, tafakkur va tabiat bilan uygʻunlik bu jarayonda oʻziga xos uslub va yoʻnalishlarga ega. *Kosmologik va intuitiv yondashuv* matematikani tabiat qonuniyatlari bilan uygʻun holda rivojlantirgan. Cheksizlik tushunchasi orqali nol va cheksiz sonlar nazariyasi shakllangan, tartibning ifodasi deb hisoblangan. *Simvolik va aksiomatik yondashuv* mukammallikni, insonning ruhiy-maʼnaviy rivojlanishini ifodalashga xizmat qilgan. Sharq matematik tafakkuri koʻproq uygʻunlik va kollektivlikni qadrlaydi. Ushbu tafakkur uslubi innovatsion taʼlim tizimlarini yaratishda yangi imkoniyatlar ochadi. Ularni anglash va integratsiyalash orqali matematik taʼlimning madaniyatlararo yondashuvlarini takomillashtirish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Gʻarb falsafasida matematik tafakkur rivoji: antik davrdan XXI asrgacha”** deb nomlanib, mazkur bobda matematik tafakkurning shakllanishida muhim oʻrin tutgan Gʻarb faylasuflari va antik davr mutafakkirlarining ilmiy merosi, matematik, gnoseologik va mantiqqa oid qarashlari tahlil qilingan va ularning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib berilgan.

Ilmiy matematik tafakkurning shakllanishida Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari muhim rol oʻynagan. Avvalo, antik davrning buyuk shaxslari sifatida Pifagor, Levkipp va uning shogirdi Demokritni hamda Arximedni esga olish darkor. Pifagorning (mil. avv. 580-500) hayoti va ijodi haqida deyarli hech nima maʼlum boʻlmasa-da, uning Pifagor teoremasi har bir maktabda oʻqitiladi. Pifagor matematiklar maktabining asoschisidir. Ushbu maktab keyinchalik sonlarni sakrallashtirishga qaratilgan diniy-mistik va axloqiy prinsiplarni himoya qilgan, targʻib etgan. Pifagorning ilmiy matematik qarashlari sonlar haqidagi fan – arifmetikaga, shakllar haqidagi fan – geometriyaga, koinot tuzilishi haqidagi fan – astronomiyaga asoslangan. Pifagor oʻz maktabiga aʼzo boʻlmoqchi boʻlganlardan goʻzallikka (goʻzallik sonlar garmoniyasidadir) va qimmatlilikka intilish (pragmatizm), foydali boʻlish va yuqori zavq-shavq bilan yashash (epikurizm) tamoyillariga amal qilishni talab etgan. Ularga Pifagor besh yil gapirmaslikni, faqat fikrlashni shart qilib qoʻygan<sup>10</sup>. Bundan maʼlum boʻladiki, pifagorchilar matematik tafakkurni, fikrlashni hayotiy pozitsiya, falsafiy taʼlimot darajasiga koʻtarishgan, ularning uygʻunligidan zavqlanib yashashga intilishgan. Levkipp (mil. avv. 500-440) ilmiy matematik tafakkurga: 1) mutlaq boʻshliq; 2) “boʻshliqda harakat qiluvchi atomlar”; 3) mexanik zaruriyat borligi haqidagi qarashlarni kiritgan. “Boʻshliq”, “atom” va “harakat” tushunchalarining ilmiy isteʼmolga kiritilishi borliqni harakatlantiruvchi kuch – atomning massasi, oʻlchovi, matematik ifodasi haqidagi ilk tasavvurlar edi. Faylasuf ushbu tushunchalarni kiritibgina qolmadi, ularni ilmiy taʼlimot sifatida shakllantirdi<sup>11</sup>.

<sup>10</sup>Qarang: Лаэртский Д. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. — Москва: Мысль, 1979. — С. 335

<sup>11</sup>Qarang: Шавель И. Философия древности. Любовь и мудрость древних. — Москва: Литрес, 2018.

Demokrit (mil.avv. 460-370 yy) narsalarning hajmini o'lchash tartiblarini ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra, piramidaning hajmi prizma hajmining uchdan biriga teng ekanligi bilan izohlanadi. Demokrit birinchi bo'lib "perspektiva" iborasini ilm-fanga kiritgan va uning geometrik ahamiyatini ochib bergan. Shuning uchun ham u ilmiy matematik tafakkur tarixiga "buyuk geometr" sifatida kirgan. Manbalarning guvohlik berishicha, u ilmiy matematik qarashlarini Qadimgi Misr va Bobildagi maktablarga borib, olgan. U cheksiz kichik sonlar mavjudligini aytgan. Buni dunyoning rang-barangligi, cheksizligi sifatida ham talqin qilish mumkin<sup>12</sup>. Uning falsafiy merosida fikrning chinligi masalasi muhim o'rin tutadi. U ko'proq induksiya va analogiyani o'rganishga e'tibor beradi, haqiqatni bilish uchun yakka buyumlarni kuzatish, his qilish orqali matematik umumlashtirish zarur, deb ta'kidlaydi<sup>13</sup>.

Borliqda esa matematik ifoda etiladigan makon, sath mavjud. Sathiga ega bo'lgan narsa borliqda o'z pozitsiyasiga ega. L.Vitgenshteynning tezisi ana shunday mulohazalarga undaydi. Ming afsuski, L.Vitgenshteyn nazarda tutgan "fakt" predmet, obyektiv borliqdagi moddiy narsalarni emas, balki tadqiqotchi xayolidagi tasavvurni anglatadi. Moddiy narsalar xayol, tasavvur, qandaydir shakllarga ega narsalar haqidagi fikrlardir, faylasufni esa ana shu xayollar, tasavvurlar qiziqtiradi. "Substansiya o'rniga ega bo'lishidan qat'i nazar mavjuddir. U shakl va mazmundir. Makon, vaqt, rang obyekt shakllarining mohiyatidir. Agar dunyo barqaror shakllarga ega bo'lsa, demak, obyektlar ham mavjuddir"<sup>14</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, aql izlanishlarga moyil, inson ilmiy izlanishlarining ko'rsatkichi hisoblanadi. Agar avvaliga u sodda, oddiy, oson narsalarni o'rgangan bo'lsa, u asta-sekin murakkab narsalarni egallashga, ulardagi haqiqatni topishga tayyor bo'ladi. Oddiydan murakkabga borish aqlni adashishlardan asraydi, unga haqiqatni topish imkonini beradi. Intuitsiya va deduksiyaga tayanish orqali aql murakkab voqeliklarni, predmetlarni anglashga, ulardan haqiqatni topishga imkon topadi. Aqlning topqirligi fantaziya, his-tuyg'ular, xayolot unsurlari ham bilishi mumkinligini rad qilmaydi, ular aqlga yordam beruvchi vositalar sifatida kelsa, aqlning ilmiy tafakkur ifodasi sifatiga kelishini ta'minlaydi, unga yordam beradi. Shuning uchun aqlni yuqoridagi tuyg'ular va xayol mahsullariga qarshi qo'yimaslik, balki ular o'rtasidagi uyg'unlikni, bir-birini boyitishga yordam beradigan jihatlarni topish darkor. Bunday yondashuv bir vaqtning o'zida obyektning, muammolarning barcha tomonlarini ilg'ab olishga, shu tariqa esa bilimning aniqligiga, ishonchliligiga erishishga imkon beradi.

Dissertatsiyada ilmiy bilish uchun ikki jihat borligidan kelib chiqish zarurligi asoslab berilgan. Birinchisi, bilish subyektning borligidan va ikkinchisi bilish obyektini mavjudligidan. Birinchisiga to'rt jihat xos – aql, xayol, his va xotira. Faqat aql haqiqatni anglash xususiyatiga ega, biroq u xayol, his va xotira xizmatlariga tayanishini unutib bo'lmaydi. O'rganiladigan narsalardagi jihatlar uchta: o'zidan

<sup>12</sup>Qarang: Математика. Справочник школьника. — Москва: ТКИСО, 1995. — С. 88

<sup>13</sup>Qarang: Шарипов М., Файзихўжаева Д. Мантик. — Тошкент: Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. — Б. 17

<sup>14</sup>Qarang: Витгенштейн Л. Логико-философский трактат. — Москва: АСТ, 2022. — С. 15

o‘zi ayon narsalar, nima nima orqali anglanadi yoki bilish mumkin, nima nimadan kelib chiqadi va qanday pastulatlarga olib keladi<sup>15</sup>.

Bilish subyektining jihatlari bilish obyektining jihatlariga aynan bo‘lishi mumkin emas, bu pastulat esa obyektning birlamchiligini ko‘rsatadi. Bilish jarayonlari subyektning ichki xohishlaridagina iborat emas. To‘g‘ri, bilish subyektini o‘zining gnoseologik qiziqishlarini ifoda etishi, ularni shakllantirib, ma‘lum bir nazariya yoki teorema tarzida keltirishi mumkin. Bilish subyektini o‘zining qarashlarini va ilmiy pozitsiyasini ifoda etmaydigan tadqiqot yo‘q, ammo ularni obyektning aynan o‘zi tarzida talqin qilmaslik kerak. Subyektiv fikr cheklagan, nisbiy, obyektning jihatlari cheksiz, u turli talqinlarni keltirib chiqarishi mumkinligi bilan murakkabdir. Obyektning murakkabligi bilish jarayonini ham murakkablashtiradi, natijada bitta obyekt qayta va qayta tadqiq etilishi mumkin. Ratsionallik subyektning qarashlarini obyekt real holatidan ustun qo‘yishda emas, balki obyektning real holatidan kelib chiqib, ushbu holatni aql tomonidan anglanishidir.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, G‘arb falsafasida matematik tafakkur mantiqiy, analitik va eksperimental asoslarda shakllangan bo‘lib, bu yondashuv ilmiy rivojlanishga katta ta‘sir ko‘rsatgan. *Mantiqiy va deduktiv yondashuv* mantiq va tafakkur qonunlariga asoslangan, “absolyut shakllar” orqali tushuntirilib, matematik tushunchalarni abadiy va o‘zgarmas deb hisoblangan. Har qanday matematik tizim aniq aksiomalar va qonuniyatlarga asoslanganligi ilgari surilgan. *Analitik va empirik yondashuvda esa*, matematik tafakkur ilmiy tajribalar bilan boyitilgan, empirik tajribalar orqali rivojlantirilgan. *Texnologik va ilmiy yondashuv* G‘arb matematik tafakkurining rivojlanishida texnologik yutuqlar va ilmiy kashfiyotlar muhim o‘rin tutganligini isbotlaydi. Matematik tafakkur texnologiyalar asosida rivojlanib, informatika, sun‘iy intellekt va algoritmik tafakkur sohalariga ta‘sir ko‘rsatgan, aniqlik, isbot va eksperimentallik tamoyillari rivojlantirilgan.

Dissertatsiyada Sharq va G‘arb falsafasida matematik tafakkurning asosiy farqlari unga bo‘lgan yondashuvda, metodologiyada, tafakkur asoslari va bilim manbaida namoyon bo‘lishi aniqlashtirilgan. Sharq va G‘arb falsafasida matematik tafakkur o‘ziga xos yondashuv va metodologiyalarga ega. Sharq falsafasi – matematik tafakkurni kosmologik, intuitiv va ma‘naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda rivojlantirgan bo‘lsa, G‘arb falsafasi – matematik tafakkurni mantiqiy, deduktiv va empirik asosda shakllantirib, ilmiy taraqqiyotga zamin yaratgan.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekiston yoshlarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish: milliy tajribalar, muammolar va yechimlar”** deb nomlangan uchinchi bobida Yangi O‘zbekiston yoshlarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda matematik bilimlardan foydalanish, yoshlarda matematik tafakkurga qiziqish uyg‘otish, ijtimoiy hayotimizda kechayotgan raqamlashtirish, kompyuterlashtirish, algoritmlashtirish talablariga mos keladigan ko‘nikmalarni tarbiyalash muammolari tadqiq etilgan.

Yangi O‘zbekistonning ta‘lim konsepsiyasi va ta‘lim sohasidagi islohotlarda yoshlarni chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, ilmiy dunyoqarashga ega, kreativ

---

<sup>15</sup>Qarang: Декарт Р. Сочинения в двух томах. Т.1. — Москва: Мысль, 1989. — С. 113

faol shaxslar qilib tarbiyalash vazifa qilib qo'yilgan. Bu vazifani matematik tafakkursiz va ilmiy dunyoqarashsiz bajarib bo'lmaydi. Yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish butun ta'lim va tarbiya tizimi, jarayonlari va institutlari bilan uzviydir. Hatto maktabgacha ta'lim tizimi, muassasalari ham bolalarni ilmiy qarashlar, tasavvurlar va tushunchalar bilan tanishtiradi, ular borliqni, tabiatni va jamiyat tartiblarini bilishga o'rgatadi. Biroq ilmiy bilishdan ilmiy dunyoqarashga o'tish, mutaxassislarning fikriga ko'ra, murakkab holat va protseduralarni o'z ichiga oladi:

1) aqlni haqiqatni anglashiga ishonish va bu borada mantiqiy izchanlik ko'rsatish;

2) ilmiy bilishda nafaqat ilmiy, shuningdek noilmiy, hayotiy qarashlar ham uchrashini tan olish;

3) oilaviy qadriyatlar, etnomuhit, yoki sotsial identifikatsiyalar ta'siri;

4) ilmiy dunyoqarashni, aql-u idrok va realizmni himoya qilishga yordam beradigan mardlik kerak;

5) e'tiqod (masalan, diniy, transsendental) va ilmiy dunyoqarash o'rtasida ziddiyat yuzaga kelsa, obyektiv borliq, ilmiy qadriyatni tanlash jur'ati zarur;

6) ilmiy dunyoqarash ichki psixologik ustanovkalar, fikrlar, boshqalarnikiga o'xshamas hayotiy g'oyalar bilan to'qnash keladi, shu paytda intellektual soflik asosiy rol o'ynaydi;

7) har bir kishida o'z fikrini himoya qilish va har bir kishi boshqacha qarashga ega bo'lishi mumkinligidan kelib chiqish;

8) shaxsiy ishonch, to'plangan tajribalar ilmiy dunyoqarashga ta'sir etish kuchiga ega;

9) har bir on, har bir narsa kishiga betakror tuyg'ular, sezgilar va qarashlar in'om etishi mumkin;

10) ilmiy dunyoqarash pirovard natijada naturalizmni, ya'ni obyektiv borliq mavjudligini, bu mavjudlikni inson aql-u idroki anglashi va o'zgartirishi mumkinligiga qat'iy ishonch lozimdir<sup>16</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, ilmiy dunyoqarash shunchaki tajriba yoki hayotiy kundalik fikrlar emas, u ma'lum bir tamoyillarga, ichki va tashqi belgilariga ega metafizik xarakterdagi voqelikdir. Agar dunyoni qadriyatlar arxitonikasi deb olsak, ilmiy dunyoqarash ushbu qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi, ularga gumanistik mohiyat baxsh etuvchi, inson gnoseologik tajribalarining ideal, ishonch, qarash va tasavvurlar shaklidagi mujassamidir<sup>17</sup>.

